

BUZOQLARDA MODDA ALMASHINUV JARAYONLARIGA DORIVOR MODDALARNING TA'SIRI VA NOTO'G'RI QO'LLANISHI

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Nukus filiali "Veterinariya meditsinasi va
farmakologiyasi" kafedrası v.f.f.d.(PhD)

Katta o'qituvchisi: **J. E. Rejepbayev**¹

Magistir: **P.W. Nurimova**²

Talaba: **S. K. Tajimova**³

Annotatsiya: Ushbu maqolada buzoqlarda modda almashinuv jarayonlari va unga dorivor moddalarning ta'siri o'rganilgan. Vitaminlar, minerallar, probiotiklar va energetik stimulyatorlarning metabolizmni rag'batlantirishdagi roli hamda dorilarning noto'g'ri qo'llanishi oqibatlarini yoritilgan. Shuningdek, buzoqlarni parvarishlashda amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar; Modda almashinuvi (metabolizm), Vitamin va mineral preparatlar A, D3, E vitaminlari va kalsiy-fosfor birikmalari, Anabolik preparatlar, Oqsil, yog' va uglevod almashinuvining disbalansi, Gormonlar yoki anabolik dorilarning nazoratsiz qo'llanishi.

Kirish; Buzoqlarning hayotining dastlabki davrlarida modda almashinuvi jarayonlari nihoyatda faol kechadi. Bu jarayonlar buzilganda o'sish sekinlashadi, immunitet zaiflashadi va umumiy sog'liq holati yomonlashadi. Veterinariya amaliyotida bu jarayonlarni tartibga solish uchun turli dorivor moddalar qo'llaniladi. Shu bois, bu dorilarning organizmga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Modda almashinuvi va uning ahamiyati; Modda almashinuvi (metabolizm) organizmning barcha hayotiy jarayonlarini ta'minlaydi. Buzoqlarda metabolizm intensivligi yuqori bo'lib, energiya ishlab chiqarish, to'qima va organlarning rivojlanishi, immunitet faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi jarayonlarga xizmat qiladi [1, 5].

Dorivor moddalar va ularning roli - Vitamin va mineral preparatlar A, D3, E vitaminlari va kalsiy-fosfor birikmalari suyak va mushak to'qimalarining rivojlanishini ta'minlaydi, immunitetni oshiradi [2]. Probiotiklar va prebiotiklar: Ichak mikroflorasini tiklaydi, oziq moddalarning yaxshiroq so'rilishiga yordam beradi [3]. Energetik stimulyatorlar: Masalan, propilen glikol stress va kasallikdan keyin energiya ishlab chiqarishni tiklash uchun ishlatiladi [4]. Anabolik preparatlar (masalan, somatotropin) oqsil sintezini rag'batlantiradi, mushak massasining o'sishini tezlashtiradi [5].

Dorilarni noto‘g‘ri qo‘llashning xavfi Dorilarni haddan tashqari yoki maqsadsiz qo‘llash quyidagilarga olib kelishi mumkin: Modda almashinuvining buzilishi Organlar, ayniqsa jigar va buyrak faoliyatining buzilishi. Allergik reaksiyalar va immunitet pasayishi [6].

Buzoqlarda dorilardan noto‘g‘ri foydalanish, ularning sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Quyida asosiy xavf omillari batafsil yoritilgan: Modda almashinuvining buzilishi, Dorilar, xususan, gormonlar yoki anabolik vositalar noto‘g‘ri dozalarda qo‘llanganda tabiiy metabolik jarayonlarni izdan chiqaradi. Buzoqlarda: Oqsil, yog‘ va uglevod almashinuvining disbalansi yuzaga keladi. Energetik resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi natijasida to‘qimalarda yallig‘lanish va distrofik o‘zgarishlar rivojlanadi. O‘sish va rivojlanish sekinlashadi yoki nosimmetrik (buqoq, suyak deformatsiyalari) rivojlanish kuzatiladi.

Ichki organlarga toksik ta‘sir; Dorilarning doimiy yoki haddan tashqari yuqori dozada berilishi: Jigar ferment tizimining haddan tashqari yuklanishi tufayli jigar hujayralarining shikastlanishi. Gepatotoksik ta‘sir natijasida jigar yetishmovchiligi rivojlanishi. Buyrak ekskretor (chiqarish) funksiyasining buzilishi. Toksinlar va dori qoldiqlari buyrak to‘qimalariga zarar yetkazib, nefrit yoki buyrak yetishmovchiligi keltirib chiqarishi mumkin.

Immunitetni pasaytirish; Ba‘zi dorilar, ayniqsa kortikosteroidlar va gormonlar noto‘g‘ri qo‘llanganda buzoqlarda immun tizimi zaiflashadi. Infeksion va parazitlar kasalliklarga sezuvchanlik oshadi. Vaksinatsiyalardan keyingi immun javob susayadi.

Antimikrobik qarshilik (rezistentlik) rivojlanishi; Antibiotiklarning haddan tashqari yoki noo‘rin qo‘llanishi natijasida patogen bakteriyalar dorilarga chidamli shakllarga evolyutsiyalanadi. Davolash qiyinlashadi va yangi, qimmatroq dorilardan foydalanishga ehtiyoj tug‘iladi. Chidamli mikroblar orqali zoonoz kasalliklarning odamga yuqish xavfi ortadi.[5]

Allergik va toksik reaksiyalar; Dorilar, ayniqsa antibiotiklar va vitamin komplekslari, ba‘zan allergik reaksiyalar (to‘qima shishlari, dermatit, anafilaktik shok) keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim hollarda tizimli intoksikatsiya kuzatiladi, bu buzoqlarning o‘limiga olib kelishi ham mumkin.

Endokrin tizimning buzilishi; Gormonlar yoki anabolik dorilarning nazoratsiz qo‘llanishi gormonal disbalans (masalan, jinsiy yetilishning erta boshlanishi yoki buzilishi), Ichki sekretsia bezlarining faoliyatini izdan chiqaradi.

Xulosa

Buzoqlarda modda almashinuv jarayonini tartibga solish uchun dorivor moddalarni ehtiyotkorlik bilan va ilmiy asoslangan tarzda qo‘llash muhimdir.

To'g'ri tanlangan preparatlar o'sish va rivojlanishning optimal darajasiga erishishga yordam beradi, noto'g'ri qo'llash esa sog'liqni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shunday ekan, dorilarni faqat veterinariya nazorati ostida va belgilangan dozalarda qo'llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith, T. and Johnson, R. (2018). Animal Metabolism and Growth. Academic Press.
2. Radostits, O.M., Gay, C.C., Blood, D.C., Hinchcliff, K.W. (2007). Veterinary Medicine: A Textbook of the Diseases of Cattle, Horses, Sheep, Pigs and Goats. Saunders.
3. Constable, P.D., Hinchcliff, K.W., Done, S.H., Grünberg, W. (2017). Veterinary Medicine: A textbook of the diseases of cattle, horses, sheep, pigs and goats. Elsevier.
4. Bakirov B. Hayvonlarda modda almashinuvining buzilishlari va jigar kasalliklari // Monografiya. Samarqand. -2016.
5. Rejebbayev J.E. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitidagi yosh buzoqlar A- va D- gipovitaminozlarida yangi polivitaminli preparatlarni qo'llash samaradorligi // Monografiya. Samarqand. -2024.
6. Norboyev Q.N. Bakirov B. Yeshburiyev B. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik, Toshkent, 2007.
7. Samoxin V.T. Xranicheskiy kompleksnyy gipomikroelementoz i zdorov'ye jivotnykh // Jurnal Veterinariya. 2005.
8. Kondrakin I.P., Levchenko V.I. Diagnostika i terapiya vnutrennix bolezney jivotnykh. M.: Izd. OOO "Akvarium-Print", 2005.